




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIYAT VAZIRLIGI

YUNUS RAJABIY NOMIDAGI
O'ZBEK MILLIY MUSIQA SAN'ATI INSTITUTI

An'anaviy
DOIRA



V1
N-18

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
RESPUBLIKA MADANIYAT MUASSASALARI FAOLIYATINI
TASHKIL ETISH ILMIY – METODIK MARKAZI
YUNUS RAJABIY NOMIDAGI
O'ZBEK MILLIY MUSIQA SAN'ATI INSTITUTI

Sherzod Nazarov

AN'ANAVIY DOIRA

O'quv qo'llanma



Toshkent
«Tafakkur avlodi»
2022

UO'K 780.634(075.8)

KBK 85.315.3ya73

N 18

Mas'ul muharrir:

A.Zokirov – Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI o'quv ishlari bo'yicha prorektori, "O'zbek maqomi tarixi va nazariyasi" kafedrasida katta o'qituvchisi, musiqashunos.

Musiqiy muharrirlar:

Sh.Abduxoshimov – Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI matbuot kotibi, musiqashunos.

D.Aliyev – Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI "Professional ta'lim" fakulteti dekani o'rinbosari, musiqashunos.

Taqrizchilar:

D.Islomov - O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professori.

R.Samadov - Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti "Maqom cholg'u ijrochiligi" kafedrasida dotsenti.

I.Ikromov - O'zbekiston davlat konservatoriyasi "Xalq cholg'ulari" kafedrasida professori.

Nashr uchun mas'ul:

N.Botirova - Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI Kengash kotibi, musiqashunos.

An'anaviy doira [Matn]: o'quv qo'llanma / Sh. Nazarov. – Toshkent: «Tafakkur avlodi», 2022. – 40 b.

UO'K 780.634(075.8)

KBK 85.315.3ya73

ISBN 978-9943-6901-7-2



© Sh. Nazarov
© «Tafakkur avlodi», 2022



ANNOTATSIYA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 26-27-iyun kunlari Namangan viloyatiga tashrifi doirasida, viloyat faollari ishtirokida o'tkazilgan yig'ilishda berilgan topshiriqlar hamda 2022-yil 2-fevraldagi PQ 112-sonli "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror ijrosini ta'minlash maqsadida Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati inistituti "Maqom cholg'u ijrochiligi" kafedrasida professor-o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan **"An'anaviy doira"** (o'quv qo'llanma) institut Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

Mazkur o'quv qo'llanma doira cholg'usining qisqacha tarixi, nazariy qoidalari, mashq hamda kuylardan iborat bo'lib, ulardan dars va mustaqil mashg'ulotlar jarayonida foydalanish tavsiya etiladi.

Qo'llanmaning afzal tomoni shundaki, doira cholg'usiga qiziquvchi o'quvchilarning mustaqil shug'ullanishlari uchun innovatsion texnologiyalardan foydalanilgan. Ya'ni, har bir dars mavzusining audio va video yozuvlari **QR** – kod shtirixiga joylashtirilgan bo'lib, giper havolalar orqali qo'l telefoni skaneri yordamida ochiladi.

"An'anaviy doira" (o'quv qo'llanma) - davlat ta'lim standartlariga binoan Musiqa va san'at maktablarining boshlang'ich 1-2-3-sinflari hamda umumta'lim maktablarining 5-6-7-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan.

KIRISH

Markaziy Osiyo xalqlari musiqa madaniyatining sarchashmalari uzoq o'tmishdan boshlanadi. Miloddan avvalgi birinchi ming yillikdayoq Markaziy Osiyo xalqlari hayotida musiqa va raqs san'ati alohida ahamiyat kasb etgan. Markaziy Osiyo va ayrim Sharq xalqlari ko'hna musiqa madaniyatining o'ziga xos belgilaridan biri - ommaviy xalq qo'shiqlari va cholg'u kuylari bilan bir qatorda, an'anaviy hisoblangan og'zaki uslubdagi musiqa san'ati vujudga keldi va rivojlandi. Markaziy Osiyo xalqlarining, jumladan, o'zbek xalqining qadimiy kuy va qo'shiqlari to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlarni Sharq musiqa madaniyati haqida fikr yuritgan O'rta asr olimlarining risolalaridan ham bilib olsak bo'ladi. Musiqa ilmi va amaliyotiga oid turli muammolar ustida birinchilar qatorida fikr yuritgan mutafakkirlardan biri mashhur faylasuf, qomusiy alloma Abu Nasr Forobiydir (IX-X asr). Uning musiqaga oid "Kitob al-musiqiy al-kabir" nomli ulkan kitobi ("Musiqa haqidagi katta kitob") keyingi avlodlar ijodi uchun dastur sifatida xizmat qilib kelmoqda desak, hech mubolag'a bo'lmaydi.

Asrlar davomida Markaziy Osiyoda tanbur, ud, nay, chang, rubob, qo'biz, g'ijjak, surnay, bulamon, nog'ora va doira kabi musiqa cholg'ulari keng qo'llanilib kelingan. Bizgacha yetib kelgan ma'lumotlarga ko'ra, jo'rnavoz zarbli soz sifatida ommalashgan doira ham o'zining rivojlanib kelayotgan, milliy ohanglarga boy zarb va usullari bilan xalq orasida shuhrat qozonib kelgan. Eramizdan avvalgi ikki minginchi yillikka oid Saymalitosh arxeologik qazilmalaridan topilgan doirasimon sozlarda ijro etilayotgan tasviriar juda qadim paytlardayoq vujudga kelgan cholg'u ekanligidan guvohlik beradi. Turli tasvirlarda aks ettirilgan bu cholg'u zamonaviy o'zbek va tojik doiralariga aynan o'xshab ketadi. Ayrim qadimiy tasvirlardagiga nisbatan doiraning hozirgi tuzilishida ba'zi o'zgarishlar mavjud. Masalan, doira gardishida teshiklar o'yilmaydi, hozir esa ularning o'rnini gardishning ichki tomonidan osiladigan metall halqachalar egallaydi. Bu cholg'u o'zbek va tojiklarda "doira", "chirmanda",



“childirma”, armanlarda “dapp”, eron va misrliklarda “daff”, ozarbayjonlarda “def”, “doyre”, “gaval”, ayrim sharq mamlakatlarida “dabu” va boshqa nomlar bilan keng tarqalganligi ma’lum. Umuman, doira turlari bir-biridan kattakichikligi, tarkibiy qismlarining tuzilishi, ijrochilik uslublari bilan farq qiladi.

Markaziy Osiyo yerlarida olib borilgan arxeologik qazilmalar natijasida olingan ma’lumotlarga qaraganda, islom davridan oldingi zamonlarda doira cholg’usida, asosan, ayollar jo’r bo’lgan. Ularning doira usullariga mos qo’shiq aytishi va raqsga tushishi o’sha davrlarda shakllanib, asrlar osha rivojlanib kelgan. Hujjatlarning dalolatiga ko’ra, doira – zarbli sozlar qayroq, zang va boshqalar bilan bir qatorda, oymoma marosimlarida kohinlar tomonidan keng qo’llanilgan. Xalqimizning ma’naviy boyligi, xalq ijodida asrlar osha shakllanib, rivojlanib kelgan maqomlarda esa, asosiy negiz lad va usuldir. Shuning uchun milliy musiqamizning shoh asarlari bo’lmish maqomlar ijrochiligini doirasiz tasavvur etib bo’lmaydi. Maqomlarning Nasr va Mushkulot ijro yo’llarini yuqori malakali ijrochi sozandalar-u hofizlar doira bilan hamkorlikda ijro etishgan. Ma’lumki, doira va barcha zarbli cholg’ular ijrochiligi vujudga kelishi va ravnaqi jarayonida Markaziy Osiyo miqyosida har bir vohada o’ziga xos mahalliy ijrochilik uslublari shakllangan. Bu uslublarda har bir vohaning o’ziga xos xususiyatlari, ahamiyat kasb etuvchi tomonlari hamon o’z mohiyatini saqlab kelmoqda. Bularga Xorazm, Buxoro, Samarqand, Farg’ona-Toshkent doira ijrochiligini misol qilib keltirishimiz mumkin. Doira yakkanavozligining tarkib topishida raqs san’atining ta’siri katta. Chunki, bu jarayon raqslarda bo’lgan harakat, joziba, lutf, imo-ishora kabi xalqimizga xos go’zal an’analarni doira usullarida to’la ifodalash bilan bog’liqdir.

XVIII va XIX asrlarda O’zbekistonda doira soziga xassos san’atkor O’zbekiston xalq artisti Usta Olim Komilov asos soldi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab O’zbekistonda doira ijrochiligining yangi uslubi, ya’ni uning yakka soz sifatida qo’llanishi rivojlana boshladi.



DOIRANING TUZILISHI


Doira cholg'usi o'zbek, tojik, uyg'ur xalqlarida keng tarqalgan. Uni xalq orasida childirma, chirmanda, daf va doira deb atashadi. Doira cholg'u sozini o'rganish uchun avvalo uning tuzilishi bilan tanishib chiqish zarur. Doira tuzilishiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: ichki va tashqi.

1. Doira cholg'usi asosan akatsiya, yong'oq va o'rik kabi mevali daraxtlardan yasaladi. Doira gardishining diametri (aylanma hajmi) 36 sm dan 40 sm gacha, gardish eni esa 5-6 sm qalinligida bo'ladi.
2. Cholg'uga qoplanadigan teri (membrana) esa ot, tuya, buzoq kabi uy hayvonlari terisidan tayyorlanadi va gardishga maxsus yelimlar yordamida yopishtiriladi.
3. Doiraga qoplanadigan terining barcha xususiyatlarini nazarda tutgan holda, uni uch guruhga bo'lish mumkin, bular:
 - 1) Yupqa terili;
 - 2) O'rta terili;
 - 3) Qalin terili.
4. Doira qoplash jarayonida og'ir gardishga qalin teri, o'rta gardishga o'rta teri, yengil gardishga yupqa ten qoplash maqsadga muvofiqdir.
5. Doiraning barcha xususiyatlarini nazarda tutgan holda, uni uch guruhga bo'lish mumkin:
 - 1) Yengil gardishli;
 - 2) O'rta gardishli;
 - 3) Og'ir gardishli.



Doiraning tashqi ko'rinishi (1-rasm)

Doira gardishi ichki tomoniga uning diametriga qarab, 70-80 ta va undan ortiq metall halqachalar halqani ushlab turish uchun zulp o'rnatiladi. 14-15 ga yaqin bittalik yoki uchtalik bezak baldoqlari mixlanadi. Gardishning teriga tutashgan ichki tomoni doira zarblarini bo'g'masligi uchun biroz yoysimon yo'nilgan bo'lishi lozim.



Doiraning ichki ko'rinishi (2-rasm)



Savol va topshiriqlar:


1. Doira tuzilishiga ko'ra necha guruhga bo'linadi?
2. Doira bezaklarini sanang.
3. Doira cholg'usi qanday daraxtlardan yasaladi?
4. Doira cholg'usiga qanday teri qoplanadi?

2-DARS



DOIRANING USHLASH HOLATLARI

Doirani erkin ushlab va qulay holatda ijro etish uchun amaliyotda doirachilar maxsus tayyorlangan moslama-ip bog'ichdan foydalanadilar. Ushbu bog'ich gardishning ichki tomonidagi halqachalarni biriga mahkam bog'lanib, o'ng qo'l bosh barmog'iga kiydiriladi (1-2-3-rasmlar).





Doira ikki holatda chalinadi o'tirib va tik turgan holda. Albatta, bu ma'lum shart sharoitlarga bog'liq. Cholg'uda asosan ijro jarayonida ko'proq tik turgan holda orkestr va ansambl turkumida esa ko'proq o'tirgan holda chalinadi. Doirani tik turib chalinganda oyoqlar yelka kengligida turishi maqsadga muvofiq. Qaddimizni tik tutgan holda ikkala qo'l tirsaklarimiz gavdaga tegib turmasligi lozim. Doirani tepaga ko'targan holda chiroyli tutish kerak. (4-5-rasm.)



(4-rasm: Doira ushlab turishning birinchi holati)



(8-rasm. Doira ushlab o'tirishning birinchi holati)



(9-rasm. Doira ushlab o'tirishning ikkinchi holati)



Savol va topshiriqlar:


1. Doira bog'ichi qanday bog'lanadi?
2. Doira necha holatda chalinadi?
3. Doiraning ushlab o'tirish holatlarini ayting.




DOIRA IJRO ETISH HOLATI, KATTA VA KICHIK BUM

Ijro etish usuli: Doirani chalishda qo'llaniladigan ritm birliklari (naqralar) haqida qadimiy manbalarda yozilgan. Doira usuli odatda ikki xil zarbdan iborat. Biri — bak (baka, bako, bakka, bakko). Bak doira gardishiga yaqin joyga urilganda chiqadigan tovushdir. Ikkinchi zarb — bum. Bumni chalish uchun barmoqlarni cho'zib doiraning o'rtaroq qismiga uriladi.

O'ng qo'lda **“katta bum”** tovushini ijro etish uchun o'ng qo'l barmoqlarini juftlagan holda, cholg'uga zarb bilan tepadan pastga uriladi.



(1-rasm. Katta bum)




Katta bum



O'ng qo'l uchun mo'ljallangan “**kichik bum**” ijrosida o'rtabarmoqni sal bukkan holda zarb uriladi. Kichik bum ham katta bum urilgan joyga uriladi.



(2-rasm. Kichik bum)



Kichik bum



Savol va topshiriqlar:

1. Doira necha zarbdan iborat?
2. Katta bum qanday chalinadi?
3. Kichik bum qanday chalinadi?




O'NG QO'LDAGI KATTA VA KICHIK BAK

Katta bak” doiraning chekkasiga kaft bilan hamda barmoqlarni kergan holda biroz bukib doiraning chetrog'iga tepadan pastga urib, ijro etiladi. Bu bilan kuchli, jarangdor tovushga erishiladi.



(1-rasm. Katta bak)



Katta bum



“**Kichik bak**”ni chalish uchun doira terisining cheti - gardishga yaqin yeriga, to’rtinchi barmoq urilib, ijro etiladi. Boshqa barmoqlar kerilgan holda bo’lib, teriga tegmaydi. Bunda jarangdor, yangroq tovush chiqadi.



(2-rasm Kichik bak)



Savol va topshiriqlar:

1. Doira gardishiga qanday urilganda chiqadigan tovushga “Bak” deyiladi?
2. Katta va kichik bak qanday chalinadi?
3. Katta va kichik bak orasidagi farqni ayting.






CHAP QO'L BARMOQLARINING HOLATI, KATTA VA KICHIK BUM

Ijrochilikda muntazam, ravon tovushlar baland-pastligini bir tekisda amalga oshirish uchun o'ng qo'l zarblari cholg'uga qay darajada urilsa, chap qo'l zarblari ham shunday darajada amalga oshirilishi kerak. Shundagina usullarning bir tekisdagi mukammal ravon ijrosiga erishish mumkin.

Chap qo'ldagi "katta bum" o'ng qo'ldagi katta bum singari doira terisining o'rtasiga barmoqlarni birlashtirib pastdan tepaga urib, ijro etiladi. Bunda jarangdor yangroq tovush chiqadi.



(Chap qo'ldagi katta bum)



Katta bum






Chap qo'ldagi "kichik bum" o'ng qo'ldagi kichik bum singari doyra terisining o'rtasiga chap qo'l o'rta baermaq bilan urib, ijro etiladi. Bunda jarangdor yangroq tovush chiqadi.



(Chap qo'ldagi kichik bum)



Kichik bum



Savol va topshiriqlar:

1. Chap qo'l katta bum notaning qaysi chizig'ida joylashgan?
2. Chap qo'l kichik bum notaning qaysi chizig'ida joylashgan?
3. Katta va kichik bum orasidagi farqni ayting.




CHAP QO'L BARMOQLARINING HOLATI, KATTA VA KICHIK BAK

Chap qo'ldagi "**katta bak**" o'ng qo'ldagi katta bak singari doira terisining cheti gardishga yaqin yeriga barmoqlar bilan pastdan tepaga urib, ijro etiladi. Bunda jarangdor yangroq tovush chiqadi.



(1-rasm Chap qo'ldagi katta bak)




Katta bak

Chap qo'ldagi "kichik bak" o'ng qo'ldagi kichik bak singari doira terisining cheti – gardishga yaqin yeriga to'rtinchi barmoqni urib, ijro etiladi. Boshqa barmoqlar kerilgan holda bo'lib, teriga tegmaydi. Bunda jarangdor yangroq tovush chiqadi.



(2-rasm Chap qo'ldagi kichik bak)



Kichik bak

?

Savol va topshiriqlar:

1. Chap qo'l katta bak notaning qaysi chizig'ida joylashgan?
2. Chap qo'l kichik bak notaning qaysi chizig'ida joylashgan?




CHERTIB CHALISH (NOXUN)



Chertib chalish (noxun) jimjiloqni to'rtinchi barmoq ustidan sirg'antirib, doiraning chekkasiga chertib, ijro etiladi. Tiniq, jarangdor tovushga erishiladi. Xuddi shu holat o'ng qo'l ijrosida ham takrorlanadi. Beshinchi barmoq to'rtinchi barmoq ustiga qo'yilib sirg'alib chertiladi. Chertib chalish uslubiga katta e'tibor berish kerak.




(1-rasm. O'ng qo'ldagi noxun)



O'ng qo'l Noxun



(2-rasm. Chap qo'ldagi noxon)



Chap qo'l Noxon



Savol va topshiriqlar:


1. Doirada chertib chalish nima deb ataladi?
2. Noxon chalish holatini ayting.

8-DARS



NOTA CHO'ZIMLARI VA UNING JOYLASHUVI. NOTA CHO'ZIMLARI

Butun nota	1i-2i-3i-4i ga sanaladi
Yarim nota	1i-2i ga sanaladi
Chorak nota	1i ga sanaladi
Nimchorak nota	1 yoki i ga sanaladi
O'n oltitalik to'rttasi	1i ga sanaladi
O'ttiz ikkitalik sakkiztasi	1i ga sanaladi




Savol va topshiriqlar:

1. Nota cho'zimplari nechta?
2. Butun nota nechtaga sanaladi?
3. Yarim va chorak nota nechtaga sanaladi?
4. Nimchorak nota nechtaga sanaladi?
5. O'n oltitalik va o'ttiz ikkitalik nota cho'zimplarining farqi?




DOIRANING NOTA TIZIMI

Doira nota yozuvini XX asrning 20-30-yillarida taniqli rus musiqashunos etnograflari M.Belyaev, V.A.Uspenskiy, N.N.Mironovlar boshlab berganlar. Ular doira cholg' u usullarini, asosan urma cholg' ular uchun amaliyotda qabul qilingan bir chizikli nota yozuvi uslubida ko'rsatib berganlar.



Pastki ikki chiziqqa o'ng qo'l, yuqoridagi ikki chiziqqa chap qo'l zarblari tushuriladi.



BEZAK TURLARI

«Shing'iroq». Doira zarblari ostida halqachalarning bir-biriga urilishi natijasida hosil bo'ladigan tovush «shing'iroq» deb ataladi va amaliyotda (x) belgisi bilan ifodalanadi.

«Nuqta» belgisi doira terisining o'rtasiga yoki chetiga tirnoq bilan chertib chalishni bildiradi.

«Pona» belgisi doira gardishining eng chekkasiga jimjiloqni to'rtinchi barmoq ustidan sirg'antirib chalishni bildiradi.

ILON IZI (~~~~~)

«Ilon izi» - bosh barmoq uchi bilan gardishining terisiga tutashgan chetidan o'ziga tomon sirg'antirib, dirillatib ijro etishni bildiradi.



YULDUZCHA (*)

«Yulduzcha» belgisi o'ng qo'lning «kichik bumi» va «kichik baki» ustiga qo'yiladi. Bu vaqtda cholg'uchi qo'lini teridan uzmaydi va tovush darrov so'nadi.

NOXUN

«Noxun» - qadimda kekxa avlod doirachilari ommaviy katta sayllarda, har xil bayram tantanalarida, anjumanlarida karnay, surnay, nog'ora cholg'ulari birligida kuylar chalish jarayonida doira zarb usullarini kuchli taralishi uchun ikkala qo'lning to'rtinchi barmog'iga noxun temirchalarini kiyib chalishgan. Hozirda noxun taqib doira chalish hollari juda kam qo'llanilmoqda.



Savol va topshiriqlar:

1. Doira nota chizig'i nechta?
2. Shing'iroq deganda nimani tushunasiz?
3. Nuqta deganda nimani tushunasiz?
4. Pona qanday chalish holatini bildiradi?
5. Ilon izi deganda nimani tushunasiz?
6. Yulduzcha qanday chalish holatini anglatadi?


10-DARS




ODDIY ZARBLAR MASHQI

O'ng qo'l barmoqlari ochiq holda pastga urilad. Bu zarb "Bak" deyiladi. Barmoqlarni birlashtirib doiraning o'rtasiga uriladi bu zarb "Bum" deyiladi. Mashqlarimizda "Bak" va "Bum" ketma-ket chalinadi.

1-Mashq



1-Etyud



11-DARS



ODDIY ZARBLAR MASHQI



2-Mashq

1i 2i 1i 2i 1i 2 - i 1i 2 - i 1i 2i

2-Etyud




1i 2i 1i 2i 1i 2 - i 1i 2 - i 1i 2i

1i 2i 1i 2i 1i 2 - i 1i 2 - i 1i 2i



ODDIY ZARBLAR MASHQI


3-Mashq



1i 2i 1i 2i 1i 2i 1i 2i



3-Etyud



1i 2i 1i 2i 1i 2i



13-DARS



ODDIY ZARBLAR MASHQI

4-Mashq

li 2i li 2i li 2i li 2i

4-Etyud




li 2i li 2i li 2i li 2i

14- DARS



“CHAP QO‘L NOXUN MASHQI”

5-Mashq



1i 2i 3i 4i 1i 2i 3i 4i 1i 2i 3i 4i 1i 2i 3i 4i

5-Etyud



1i 2i 3i 4i 1i 2i 3i 4i 1i 2i 3i 4i

15- DARS



O'NG VA CHAP QO'L KETMA-KET CHALISH MASHQI

6-Mashq

1i 2i 3i 4i 1i 2i 3i 4i



6-Etyud

1i 2i 3i 4i 1i 2i 3i 4i

16-DARS



O'NG VA CHAP QO'L MASHQI

7-Mashq

1i 2i 3i 1i 2i 3i 1-i 2-i 3-i 1i 2i 3i

17-DARS



ODDIY ZARBLAR MASHQI

8-Mashq

1-i 2-i 1-i 2-i 1-i 2-i 1-i 2-i



18-DARS



MURAKKAB MASHQI

9-Mashq

1 - i 2 - i 1 - i 2 - i

1-usul



SHAMOL

2-usul



OLMA



3-usul



ARCHA QO'SHIG'I

4-usul



QO'SHNAY



5-usul



TARONA

6-usul



ANDIJON POLKASI

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ikromov I. va Lutfullaev A. Doira (o'quv qo'llanma). Toshkent, "Musiqqa" nashriyoti, 2012-yil.
2. Ashrafxo'jaev T. Doira. Toshkent, A.Qodiriy nomidagi "Xalq merosi" nashriyoti, 2003-yil.
3. Ikromov I. Doira darsligi. Toshkent, G'.G'ulom nomidagi "Adabiyot va san'at" nashriyoti, 1997-yil.
4. Islomov D. Maxsus cholg'u. Toshkent, "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2016-yil.
5. Samadov R. Zarblar xazinasi. Toshkent, 2012-yil.
6. Samadov R. An'anaviy doira ijrochiligi. Toshkent, 2005-yil.
7. Kamolxo'jaev O., Liviev A. Doira darsligi. Toshkent, 1985.
8. Petrosyans A. Doira darsligi. Toshkent, 1952.
9. Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Toshkent, 1993.
10. Karamatov F. Узбекская инструментальная музыка. Naslelie. Tashkent, ИЗД. G. Gulyama, 1972.
11. Yanov:-Yanovskaya N.S. "История узбекской советской музыки", II т., Ташкент, изд-во им. Г.Гуляма, 1973-у.

Internet saytlari:

1. www.ziyonet.uz
2. www.google.com qidiruv tizimi
3. www.ru.wikipedia.org
4. <https://uzmmsi.uz>



GLOSSARIY

Doira – (o‘zb. dapp, childirma, chirmanda) – o‘zbek, tojik va uyg‘ur xalqlari orasida keng tarqalgan, tovush balandligi noaniq urma cholg‘u asbobi.

Bak – (o‘zb) doira zarblarida baland tovush atamasi.

Bum – Buning qarshisidagi pastki tovush bum deb ataladi.

Shing‘iroq – doira zarblari ostida xalqachalarning bir-biriga urilishi natijasida hosil bo‘ladigan tovush.

Nuqta belgisi - doira terisining o‘rtasiga yoki chetiga tirnoq bilan chertib chalishni bildiradi.

Pona belgisi – doira gardishining eng chekkasiga jimjiloqning 4-barmoq ustidan sirg‘altirib chalishni bildiradi.

llon izi – bash barmoq uchi bilan gardishning terisiga tutashgan chetidan o‘ziga tomon sirg‘altirib, dirillatib ijro etishni bildiradi.

Yulduzcha belgisi – o‘ng qo‘lning kichik bum va kichik bak ustiga qo‘yiladi. Bu vaqtda cholg‘uchi qo‘lini teridan uzmaydi va tovush darrov so‘nadi.

Noxun – Metalldan yasalgan maxsus asbob “tirnoq”.

(pp) pianissimo - juda kuchsiz

(p) piano – kuchsiz

(mp) mezo piano - o‘rtacha kuchsiz

(m) mezo forte - o‘rtacha kuchli

(f) forte - kuchli

(ff) fortissimo - juda kuchli

diminuendo - tovushni asta-sekin kuchsizlantirish

crescendo - asta-sekin kuchlantirish

(sf) sfarzando - ayrim tovushlarni birdaniga kuchli ijro etish

Mogendo morendo - susaytirish

Salando kalandando - tovush kuchini susaytirish va ayni vaqtda tempni og‘irlashtirish.

maestoso - tantanali

espressivo – ta’sirli

contabile - musiqiy -musiqaviy

dolche - nozik



animato - jonli
non troppo – o'rtamiyona
allegro non troppo - o'rtacha tezlikda
molto - juda, nihoyatda
lento molto - juda cho'zib
poco a poco - oz-oz, sekin-asta
poco a poco accelerando - oz-oz sekin - asta tezlata borish
pyu - birdaniga
piu animato - birdaniga, jonliroq
Roso piu - sal, xiyol
Sempre - hamisha
Con moto - jonliroq harakat bilcrn tezlashtirib
Leggiero - yengil
Largamente – og'ir
meno - bir oz og'irroq
meno mosso – sekinroq
Largo - juda cho'zib chalinadi(eng og'ir temp)
Lento - sekin-asta
Adajio – og'ir -vazmin
Andante - sekin-asta, shoshmasdan
Andantino - andantedan tezroq
Moderato - shoshilmay (o'rtamiyona tezlikda, muloyim)
Allegretto - bir qadar tezroq, jonliroq
Allegro - jadal
vivo, vivache - jadal bilan
presto - tez
prestissimo - juda tez
achelerando - tezlashtirib
animando - jonlantirib
rallentando - sekinlashtirib
ritardando – og'irlashtirib
ritenuto - sekin-asta to'xtab
stretto - ixchamlatib (tezlatib)
tempo primo a tempo, tempo primo – avvalgi tempga qaytish

MUNDARIJA

ANNOTATSIIYA	3
KIRISH.....	4
1-DARS DOIRANING TUZILISHI.....	6
2-DARS DOIRANING USHLASH HOLATLARI.....	8
3-DARS DOIRA IJRO ETISH HOLATI, KATTA VA KICHIK BUM	13
4-DARS O'NG QO'LDAGI KATTA VA KICHIK BAK.....	15
5-DARS CHAP QO'L BARMOQLARINING HOLATI, KATTA VA KICHIK BUM.....	17
6-DARS CHAP QO'L BARMOQLARINING HOLATI, KATTA VA KICHIK BAK	19
7-DARS CHERTIB CHALISH (NOXUN).....	21
8-DARS NOTA CHO'ZIMLARI VA UNING JOYLASHUVI. NOTA CHO'ZIMLARI.....	23
9-DARS DOIRANING NOTA TIZIMI.....	24
10-DARS ODDIY ZARBLAR MASHQI.....	26
1-Mashq	26
1-Etyud.....	26
11-DARS ODDIY ZARBLAR MASHQI.....	27
2-Mashq	27
2-Etyud.....	27
12-DARS ODDIY ZARBLAR MASHQI.....	28
3-Mashq	28
3-Etyud.....	28
13-DARS ODDIY ZARBLAR MASHQI.....	29
4-Mashq	29
4-Etyud.....	29
14-DARS CHAP QO'L NOXUN MASHQI.....	30
5-Mashq	30
5-Etyud.....	30
15-DARS O'NG VA CHAP QO'L KETMA-KET CHALISH MASHQI.....	31
6-Mashq	31
6-Etyud.....	31
16-DARS O'NG VA CHAP QO'L MASHQI	32
7-Mashq	32
17-DARS ODDIY ZARBLAR MASHQI.....	32
8-Mashq	32
18-DARS MURAKKAB MASHQI.....	33
9-Mashq	33
1-usul SHAMOL.....	33
2-usul OLMA	33
3-usul ARCHA QO'SHIG'I.....	34
QO'SHINAY	34
5-usul TARONA	35
6-usul ANDIJON POLKASI.....	35
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	36
GLOSSARIY.....	37

O'quv nashr

Sherzod Nazarov

AN'ANAVIY DOIRA

“Tafakkur avlodi” nashriyoti, 2022

Muharrir:	A. Abdujalilov
Texnik muharrir:	Sh. Beknazarov
Badiiy muharrir:	Z. Shoimov
Musahhiha:	D. Beknazarova
Dizayner:	V. Xandamyan

**Nash.lits. № 2013-975f-3e5e-d1e5-
f4f3-8537-2366, 20.08.2020 y.**

Terishga 24.07.2022-yilda berildi. Bosishga 08.10.2022-yilda ruxsat etildi.

Bichimi: 60x84 1/8. Ofset bosma. «Arial» garniturasida. Shartli b.t. 5.0.

Nashr b.t. 4.65. Adadi 20 000 nusxa. Buyurtma № MV-02.

Bahosi shartnoma asosida.

“Tafakkur avlodi” nashriyoti, 100190, Toshkent shahri,
Olmazor tumani, Nodira ko'chasi, 19-uy.
e-mail: tafakkur_avlodi@mail.ru

“Tafakkur avlodi” MCHJ bosmaxonasida bosildi.
Toshkent shahri, Olmazor tumani, Nodira ko'chasi, 19-uy.
Telefon: +99890 000-33-93



«Tafakkur avlodi»
nashriyoti

ISBN 978-9943-6901-7-2



9 789943 690172